1.2.4.1.

“Autosanoat agro lizing” MChJda 2024 yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida

HISOBOT

I. Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot.

“Autosanoat agro lizing” MChJda, **2024 yil**da quyidagi Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturida nazarda tutilgan ishlar amalga oshirilgan:

“Autosanoat agro lizing” MChJning “Lizing qo‘mitasi nizomi”, “Jamiyat tomonidan mijozlarning lizingga texnika olish uchun taqdim etilgan xujjatlarni o‘rganib chiqish tartibi”, “Lizing siyosati” va “Jamiyat tomonidan mijozlarning lizingga texnika olish uchun taqdim etilgan xujjatlarni o‘rganib chiqish tartibi”da belgilangan talablarni bajarilishini o‘rganish, xavflarni aniqlash va oldini olish maqsadida, jamiyatning barcha xodimlariga “Autosanoat agro lizing” MChJ tomonidan qabul qilingan siyosat, qoida, uslubiyot, reglament, prosedura, yo‘riqnoma, kodeks va nizomlar bo‘yicha ZOOM orqali seminar treninglar o‘tkazildi.

Bundan tashqari, jamiyat xodimlari bilan ZOOM orqali “Komplaens korrupsiyaga to‘siq”, “Komplaens nazorat tizimi tashkil etilishi” hamda “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonun” mavzulari bo‘yicha o‘quv treninglar o‘tkazildi.

Kadrlarga oid masalalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining joriy etilishi borasida, ishga yangi qabul qilingan xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklarasiyani to‘ldirish va ishga qabul qiliniyotgan nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ishga yangi qabul qilingan xodimlar bilan mehnat shartnomalari korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilgani holda tuzilmoqda.

II. Siyosat va tartib-taomillar

“Autosanoat agro lizing” MChJning 04.10.2023 yildagi 31-i/ch sonli buyrug‘i bilan qabul qilingan komplaens nazoratiga oid siyosat, uslubiyot, nizom, reglament, yo‘riqnoma, kodeks, prosedura va qoidalar, jamiyat veb saytiga avval joylashtirilgan.

Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha asos bo‘lgan me'yoriy hujjatlarga hukumat tomonidan o‘zgartirishlar kiritilishi natijasida, jamiyat tomonidan qabul qilingan

ichki hujjatlarga mos ravishda tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi yuzasidan loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Jumladan: O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni qonunchilik palatasi tomonidan 2022 yil 25 oktyabrda qabul qilingan va senat tomonidan 2023 yil 1 iyunda ma'qullangan.

Mazkur qonun hujjati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 05.06.2024 yilda imzolangan va O‘RQ-931-son raqam bilan ro‘yxatga olingan bo‘lib, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran olti oy o‘tgach (06.12.2024 yilda) kuchga kirishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2024 yildagi PQ-210-sonli “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorining 2-ilovasi O‘zbekiston Respublikasining «Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosi doirasida 2024 yilda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan «YO‘L XARITASI»da belgilangan.

Ushbu qaror bilan tasdiqlangan «YO‘L XARITASI»da belgilangan chora-tadbirlar asosida, javmiyat tomonidan 04.10.2023 yildagi 31-i/ch sonli buyruq bilan qabul qilingan “Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha” siyosatiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishi rejalashtirildi.

III. Xavf-xatarlarni baholash

“Autosanoat agro lizing” MChJ tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlar quyidagi sohalar bo‘yicha tahlil qilingan:

“Autosanoat agro lizing” MChJning birlashgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, korrupsiya xavfiga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya va lavozimlar ro‘yxati va korrupsiyaga qarshi kurash dasturi (“Yo‘l xaritasi”) va uning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar platformaga yuklangan.

“Autosanoat agro lizing” MChJning 2024 yilda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash dasturi hamda Korrupsiya xavfiga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya va lavozimlar qayta ko‘rib chiqildi va ro‘yxati shakllantirildi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar:

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

2024 yil I chorak davomida “Autosanoat agro lizing” MChJga jami 9 nafar xodim (jumladan 2 nafar xodim Fuqarolik huquqiy shartnoma asosida) ishga qabul

qilingan. Mazkur xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi arizasi (deklerasiya) to‘ldirgan bo‘lib, barchasi tekshiruvdan o‘tkazilgan.

2024 yil II chorak davomida Jamiyatga jami 3 nafar xodim ishga qabul qilingan. Mazkur xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha deklerasiyalar to‘ldirgan bo‘lib, barchasi tekshiruvdan o‘tkazilgan.

2024 yilning III choragida Jamiyatga jami 4 nafar xodim ishga qabul qilingan bo‘lib, shundan bir nafar xodim avval jamiyatda “Moliya va Buxgalteriya” bo‘limlariga yordamchi mutaxassis sifatida fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida ishlab kelgan G‘afforov Akbarjon Ulug‘bekovich jamiyatning monitoring bo‘limiga doimiy ravishda etakchi mutaxassis lavozimiga qabul qilingan.

Mazkur xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi deklerasiyalari to‘ldirgan bo‘lib, barchasi tekshiruvdan o‘tkazilgan.

2024 yil IV chorak davomida Jamiyatga jami 2 nafar xodim ishga qabul qilingan. Mazkur xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha deklerasiyalar to‘ldirgan va tekshiruvdan o‘tkazilgan.

Jamiyatga 2024 yil davomida ishga qabul qilingan xodimlar tomonidan to‘dirilib taqdim qilingan manfaatlar to‘qnashuvi arizalariga (deklarasiya) binoan amalga oshirilgan o‘rganish ishlari natijasida manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlanmagan.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni tashkilot shartnomalariga kiritish

Jamiyat tomonidan tuzilgan barcha shartnomalarda, jumladan e-xarid elektron savdo platformasida tuzilgan shartnomalarda korrupsiyaga qarshi shartlar nazarda tutilgan.

Jamiyatda 2024 yil tuzilgan shartnomalardan kontragent tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilishi sababli shartnomalar bekor qilingan holatlar bo‘lmagan.

Biroq, 2024 yil davomida e-xarid elektron savdo platformasida tuzilgan shartnomalardan jami 6 tasi kontragent tomonidan shartnoma shartlariga amal qilinmaganligi tufayli bekor qilingan. Jumladan:

"International paper" MCHJ, Parfume luxe MCHJ, Inmedia print MCHJ, "Zamin oil-audit" AT MCHJ va YTT “Kadirov Murat Xamidovich” tomonidan shartnoma bo‘yicha kelishilgan tovar moddiy boyliklari belgilangan muddatilarda etkazib berilmagani sababli bekor qilingan bo‘lsa, YTT “Akromov Akbar” tomonidan etkazib berilgan tovar belgilangan texnik ko‘rsatkichlarga to‘g‘i kelmaganligi sababli rad etilgan.

Kontragentlarni tekshirish

“Autosanoat agro lizing” MChJda 2024 yilning o‘tgan davri davomida kontragentlarni “Biznes hamkorlarini Kompleks tekshirish” prosedurasida belgilangan tartib asosida tekshirish ishlarini amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yilgan.

“Autosanoat agro lizing” MChJ, "O‘zavtosanoat" AJ boshqaruvining 27.09.2021 yildagi 13-01-10-33 sonli majlis bayonnomasi asosida tashkil etilgan bo‘lib, unga ko‘ra Avtosanoat AJ tizimiga tegishli hamda unga ishonchli boshqaruvga berilgan korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan qishloq xo‘jaligi texnikalari va boshqa texnikalarni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etkazib beruvchi klasterlar va fermer xo‘jaliklariga lizing asosida etkazib berishdan iborat. Shu sababli, ushbu mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqilgan qishloq xo‘jaligi texnikalari va boshqa texnikalarni xarid qilish shartnomalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan.

Bundan tashqari, “Autosanoat agro lizing” MChJ va joylardagi mintaqaviy filiallar uchun zarur bo‘lgan xarajatlar (ofis uchun joy ijarasi, ofis mebellari, kompyuter texnikalari va boshqalar) yiil boshida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunining 61-moddasiga binoan g‘oliblar tanlash o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e'lonni joylashtirmasdan, ochiq axborot manbalaridan olingan narxlarni solishtirish yo‘li bilan yoki tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) potensial etkazib beruvchilari tomonidan taqdim qilingan narx birliklarini solishtirish yo‘li bilan aniqlik kiritilgani holda amalga oshirilib kelingan bo‘lib, yilning III choragidan boshlab to‘liq e-xarid elektron savdo platformasi orqali xarid qilinmoqda.

Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish

“Autosanoat agro lizing” MChJning xodimlar va ish yuritish bo‘yicha bosh mutaxassisi tomonidan 2024 yil I chorakda 9 nafar, 2024 yil II chorakda 3 nafar, 2024 yil III chorada 4 nafar va 2024 yil IV chorakda ishga qabul qilish uchun 2 nafar jami 2024 yil davomida 18 nafar nomzodlar tomonidan taqdim qilingan hujjatlar asosida tekshiruvlar o‘tkazilgan.

Tekshiruvlar natijasida ushbu nomzodlar bo‘yicha ijobiy xulosalar berilganligi tufayli korrupsiyaga qarshi shartlar mehnat shartnomasida ko‘rsatilib nomzodlar tanishganligini imzosi bilan tasdiqlangani holda ishga qabul qilingan.

V. Ta'lim va kommunikasiya

Jamiyat xodimlariga jamiyat tomonidan 04.10.2023 yilda 31-i/ch sonli buyruq bilan qabul qilingan quyidagi siyosat, qoida, uslubiyot, reglament, prosedura, yo‘riqnoma, kodeks va nizomlar bo‘yicha jamiyatning komplaens xizmati mutaxassisi, xodimlar va ish yuritish bo‘yicha bosh mutaxassis hamda yuridik

bo‘lim boshlig‘i tomonidan ZOOM orqali seminar treninglar (o‘qish) o‘tkazildi. Jumladan:

I - chorakda “Poraxo‘rlik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosat”, “Odob-axloq qoidalari”, “Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti” mavzulari,

II chorak davomida “Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha Siyosat”, “Aloqa kanallari orqali qoidabuzarliklar to‘g‘risida jamiyatga kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti”, “Biznes hamkorlarni kompleks tekshirish prosedurasi” mavzulari,

III chorak davomida “Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni kompleks tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnoma”, “Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti” hamda “Xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish Prosedurasi” mavzulari,

IV chorak davomida “Biznes hamkorlarning odob-axloq Kodeksi”, “Xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida Nizom”, “Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risida Nizom”lari mavzularidan iborat.

O‘tkazilgan treninglar yakuni bo‘yicha bayonnoma va o‘quv varaqlari rasmiylashtirildi.

VI. Korrupsiyaviy hatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar:

“Autosanoat agro lizing” MChJning aloqa kanallari (Jamiyatning rasmiy veb-sayti yoki elektron pochtasi; Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (misol E-mail: info@aaleasing.uz); Jamiyatning (ishonch) telefon raqamlari (71-207-10-73; 71-207-10-75); Jamiyatning telegram boti (https://t.me/autosanoatagrolizing) yoki Jamiyatga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilish) orqali 2024 yilda Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risida ma'lumot va xabarlar kelib tushmagan.

VII. Monitoring va nazorat

Idoraviy korrupsiyaga qarshi tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;

Jamiyat xodimlari korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardor bo‘lishi maqsadida har oyda Jamiyatning 04.10.2023 yildagi 31-i/ch sonli buyrug‘i bilan qabul qilingan komplaens nazoratiga oid siyosat, uslubiyot, nizom, reglament, yo‘riqnoma, kodeks, prosedura va qoidalar bilan tanishtirilib boriladi;

Korrupsiyaga qarshi dastur va yo‘l xaritasi ijrosi ustidan hamr chorak yakuni bo‘yicha nazorat o‘tkazilgan;

Shuningdek, jamiyatda korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan doimiy nazorat olib boriladi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

"Autosanoat agro lizing" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 19.08.2024 yildagi 44 i/ch-sonli, 13.09.2024 yildagi 52 i/ch hamda 53 i/ch - sonli buyruqlariga asosan, 2024 yil III chorak ish faoliyati davomida, Samarqand mintaqaviy filiali bosh mutaxassisi - Quvondiqov Sirojiddin hamda Toshkent mintaqaviy filiali bosh mutaxassislari - Usmonov E'zoz Xudoyberdievich va Xaitov Rafikjon Xudaykulovichlarga xayfsan intizomiy jazo choralari qo‘llanilgan.

IX. Xulosalar

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan asosiy chora-tadbirlar:

Biznes reja bajarilishini nazoratga olish;

Jarayonlarni avtomatlashtirish;

Komplaens faoliyatini rivojlantirish;

Idoraviy korrupsiyaga qarshi tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan, xalqaro standartlar talablariga muvofiqligi monitoringi;

Tashkilot xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi monitoringi;

Korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo‘l xaritalari ijrosi ustidan nazorat;

Tashkilotdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazoratga olish hisoblanadi.

Komplaens xizmati tomonidan o‘z vazifasini bajarish borasida, korrupsiyaga qarshi kurash qonunchiligi talablaridan kelib chiqib, jamiyat tomonidan qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlarga amal qilib kelinmoqda.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi

2024 yil davomida amalga oshirilgan chora-tadbirlardan kelib chiqib, quyidagilar taklif qilinadi.

Moliya va iqtisodiy sohada xavflarni oldini olish maqsadida to‘langan (undirilgan) moliyaviy jarimalarni o‘rganish va tegishli tartibda aybdorlarga chora ko‘rilishi bo‘yicha hujjatlarni rasmiylashtirish va rahbariyatga kiritilishini tashkillashtirish;

Jarayonlarni avtomatlashtirish maqsadida:

"Buyurtmalarni avtomatlashtirish va xarid jarayonini tizimlashtirish" onlayn platformasini "Autosanoat agro lizing" MChJda ishga tushirish;

Komplaens xizmati faoliyatini rivojlantirish maqsadida jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha trening va seminarlar tashkil qilish;

Xalqaro sertifikatni olish yuzasidan kerakli bilimlar va malakalar borligini tekshirish yuzasidan kontragent bilan muzokaralarni olib borish va jamiyatda sertifikat olishni ta'minlash;

Ichki lokal xujjatlarni takomillashtirish;

Yangi ishga qabul qilingan xodimlar bilan Komplaens bo‘yicha shartlarni kiritgan holda Mehnat shartnomalarini tuzish;

Moliyaviy ta'minlashni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etmaslik holatlari mavjudligi ehtimolini tahlil qilishda jamiyatda qonunchilik talablariga muvofiq jamiyat faoliyati tizimli ravishda auditdan o‘tkazishni qonunchilik talablariga muvofiq o‘z vaqtida olib borishni ta'minlash.

Komplaens xizmati bo‘yicha
Bosh mutaxassis **U.Sultanboev**